

## BADIY MATNDA NUTQNING GENDER XOSLANISHI

Abdunazarova Maftuna

*O'ZMU lingvistika yo'nalishi II bosqich  
magistranti*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqola o'zbek tilidagi badiiy matnlarda nutqning gender o'ziga xosligini ochib berishga asoslangan va unda murojaat va mulozamat manzirat shakllarining gender xususiyatlari, shuningdek badiiy matnda uchraydigan lingvomadaniy birliklarning gender xususiyatlari ko'rib chiqiladi*

**Kalit so'zlar:** *genderolingvistika, antroposentirizm, feminizm, gender stereotiplari*

**Key Words:** *gender linguistics, anthropocentrism, feminism, gender stereotypes*

**Abstract:** *This article is based on revealing the gender specificity of speech in Uzbek literary texts, and it examines the gender characteristics of the forms of address and politeness, as well as the gender characteristics of the linguistic and cultural units found in the literary text.*

**Ключевые слова:** *гендерная лингвистика, антропоцентризм, феминизм, гендерные стереотипы.*

**Аннотация:** *В данной статье на основе выявления гендерной специфики речи в узбекских художественных текстах рассматриваются гендерные особенности форм обращения и вежливости, а также гендерные особенности лингвокультурных единиц, встречающихся в художественном тексте.*

**Kirish:** Genderolingvistika fani erkak va ayol nutqidagi o'ziga xos jihatlarni ochib berishni nazarda tutuvchi tilshunoslik fani sohasidir. Ma'lumki insoniyat yaralgandan beri bir turga mansub bo'lgan erkak va ayol jamiyatda bajaradigan vazifasi bilangina farq qilmay, balki ularning nutqlari ham o'ziga xos jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Biz o'z tadqiqotimiz davomida o'zbek tilidagi badiiy matnlar asosida erkaklar va ayollar nutqida uchraydigan mulozamat-manzirat shakllaridagi gender belgilarni, erkak va ayol tushunchasining obrazli xususiyatlarini va lingvomadaniy birliklarning gender xususiyatlarni aniqlashni maqsad qilib qo'yganmiz.

Tilshunoslikda gender parametrlarining qo'llanilishini tadqiq etish tilshunoslikning ayol yoki erkaklarga xos konstruktiv tamoyillarini o'rganishda ham muhim ekanligi o'z isbotini topdi. Lingvistikada genderologik

tadqiqotlardan ko'zlanadigan asosiy maqsad ayollar va erkaklar nutqiga xos bo'lgan, shuningdek, har ikkala jins vakillariga xos uslubda voqelangan yozma yoki og'zaki matnlarni farqlash ko'rinishidagi lisoniy asimmetriya hodisasining turlari va sabablarini aniqlashdir. Og'zaki so'zlashuv nutqidan tortib, yozma matnlargacha turli tarzdagi o'ziga xosliklar mavjuddir. Matnlarning tuzilishi tekshirilganda, ayollar va erkaklar nutqining fonetik, leksik-frazeologik, stilistik va boshqa turdagi farqlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayol yoki erkaklar nutqidagi, ularning lisoniy faoliyatidagi individual xususiyatlarni aniqlash, bu borada samarali tahlil va tadqiq ishlarini olib borish talab etiladi<sup>1</sup>.

### Muhokama va natijalar

Murojaat shakllari va fatik kommunikatsiya vositalari (mulozamat manzirat shakllari) nutqimizda muhim o'rin tutadigan vositalardir. Ularning qo'llanilishida nutqning jozibadorligini ta'minlaydi. Ayniqsa o'zbek muloqot odobida bu vositalarni ko'p uchratamiz.

Tilning asosiy funksiyasi ham, bundan tashqari qator vazifalari ham u yoki bu darajada, albatta, murojaat bilan bog'lanadi. Masalan, **apellyativ vazifa** – chaqiruv bevosita murojaat bilan aloqadordir. Chaqiruv tinglovchiga qaratilgan bo'ladi va bu orqali u nutqni eshitish hamda qabul qilishga chaqiriladi. **Aloqa o'rnatish (контактоустановливающая) funksiyasi** zaminida ham murojaat bilan bog'liq tushunchalar yotadi: bu vazifa tinglovchini xabar – ma'lumotni qabul qilishga tayyorlash, uning e'tiborini tortish orqali bajariladi. "Sotsiolingvistika fanida murojat shakllari - bu kishi o'zi suhbat mobaynida suhbatdoshiga murojaat qilish uchun qo'llaydigan so'zlardir"<sup>2</sup>.

Til orqali ifodalanadigan muloqot shaklida murojaat shakli tinglovchi yoki murojaat qilinayotgan shaxsga ilk ma'lumot yetkazish vazifasini o'taydi. Sotsiolingvist olimlarning murojaat so'zlarining qo'llanishiga oid chiqargan xulosalarning eng e'tiborga moilligi shundaki, har qanday murojaat shaklining qanday sharoit, qaysi o'rinda qo'llanishiga oid qat'iy qoidalar mavjudligidir<sup>3</sup>.

Erkak jinsiga qaratilgan murojaat shakllarini quyidagi mavzuiy guruhlariga bo'lish mumkin:

- Chaqirish: - *birodar, ukam, o'rtoq, oshna, do'stim, og'ayni.*
- Mensimaslik, kinoya: - *kuyov to'ra, er, erkak, qariya.*
- Iltimos: - *azamat, toychoq, yaxshi yigit.*

<sup>1</sup> Qurbonova M.M., Boymirzaeva S. *O'zbek tilshunosligi mamlakatimiz innovatsion taraqqiyoti ko'zgasida.* 2011.

<sup>2</sup> Versehueren, J.2000. *Understanding Pragmatics [M] Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press & London: Edward Arnold Publishers Ltd.* - 313 b.

<sup>3</sup> Fasold R.2000. *TheSociolinguistics of Language [M] Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press & oxford: Blackwell Publishers Ltd.*

- Yalinish: - *oka, okaxon, ukaxon*.
- Neytral shakllar: - *kuyovjo'ra, boshqon, marhum, xodim, rahbar*.

Ayolga o'z ismi orqali yoki shunchaki murojaat qilishda subyektning obyektga nisbatan quyidagi munosabati kuzatiladi:

- Chaqirish: - *Toshbibi, Lutfinis, ayasi, onasi, oyijonisi*.
- Erkalash: - *Jonim, jonidan, azizam, malikam, asalim, go'zalim* kabi murojaat birliklarini qo'llash erkakning ayolga nisbatan yaqinligini, ijobiy emotsional munosabatini ifodalaydi.

- Mensimaslik, kinoya: - Katta xolamning eri, ammamning buzog'i ayol zoti, noshud, tovuqmiya kabi shakllar kinoya ma'nosida ishlatiladi. *Obbo, tegirmonchining qizi!.. Bitta qo'yni nazarlari ilmaydi!* (A.Qahhor "Dahshat")

Fatik kommunikatsiya termini ilk bor ingliz etnologi B.Malinovskiy tomonidan qo'llanilgan bo'lib, mulozamat (manzirat) ko'rsatish funksiyasini ifodalaydi. Bu atama lotincha "gapirish" ma'nosini bildiradi, ba'zan uning o'rnida "sotsiativ" so'zi ham ishlatiladi.

**Tildagi mulozamat-manzirat shakllarni ishlatilish o'rniga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:**

1. So'rashish, ko'rishish va xayrlashish jarayonida ishlatiladigan mulozamat shakllari. *Ikrommisani? Tinchmisani, bolam? Arzandaginang o'ynab-kulib yuribdimi.* (Said Ahmad "Ufq", 5-bet)

2. To'y-hasham, mehmondorchilik va boshqa shodiyona kunlarda ishlatiluvchi mulozamat shakllari.

3. A'za-motam yoki qayg'uli vaziyatlarda ishlatiladigan mulozamat shakllari. – *Endi qandoq qilaylik, Inoyat. Peshonaga shundoq bitilgandan keyin ilojimiz qancha?* (Said Ahmad "Ufq", 254-bet)

4. Nutqda doim iste'molda bo'lgan barcha boshqa vaziyatlardagi mulozamat-manzirat shakllari. – *O'rtoq leytenant, agar mumkin bo'lsa bir narsani so'ramoqchi edim.* (A.Hakimov "Oqsoq bo'ri", 158-b.)

**Mulozamat-manzirat shakllarining ifodalanishini jinslar nisbatiga ko'ra:**

- a) ayollarga xos mulozamat-manzirat shakllari;
- b) erkaklarga xos mulozamat-manzirat shakllari;
- c) ayollar va erkaklar nutqida birdek qo'llanishda bo'lgan neytral mazmundagi mulozamat-manzirat shakllariga ajratamiz;

Tatqiqotimizdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ayollar va erkaklar nutqi juda ko'p o'ziga xosliklarga ega. Shuningdek murojaat shakllari va mulozamat-manzirat ifodalovchi vositalar ham gender belgilariga ko'ra farqlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Qurbonova M.M., Boymirzaeva S. O'zbek tilshunosligi mamlakatimiz innovatsion taraqqiyoti ko'zgisida. 2011.
2. Versehueren, J.2000. Understanding Pragmatics [M] Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press & London: Edward Arnold Publishers Ltd.
3. Fasold R.2000.The Sociolinguistics of Language [M] Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press & oxford: Blackwell Publishers Ltd.